

## O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK QOBILIYATINI TAKOMILASHTIRISHNING DIDAKTIK HUSUSIYATLARI

Xasanova Gulnoza Ilhom qizi,

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.048>

*Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini takomilashtirishning didaktik hususiyatlari haqida so'z borgan. Maqola mavzusini yoritish maqsadida xorijlik va mahalliy adabiyotlardan foydalanildi. Maqoladan olingan xulosalarni o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini takomilashtirishning didaktik hususiyatlarini shakllantirishda foydalanish mumkin.*

*Kalit so'zlar: pedagogik xodisa, texnologik jihat, madaniy-tarixiy taraqqiyot, pedagogik nazariya, pedagogik mahorat, strategik yo'nalish, jamiyat, ta'lim tizimi, pedagogik qobiliyat, yaxlit shakl.*

## DIDACTIC CHARACTERISTICS OF IMPROVING TEACHERS' PEDAGOGICAL SKILLS

Xasanova Gulnoza Ilhom qizi,

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

*Abstract: This article talks about the didactic features of improving the pedagogical skills of teachers. Foreign and local literature was used to cover the topic of the article. Conclusions from the article can be used in the formation of didactic features of improving the pedagogical skills of teachers.*

*Key words: pedagogical phenomenon, technological aspect, cultural-historical development, pedagogical theory, pedagogical skill, strategic direction, society, educational system, pedagogical ability, holistic form.*

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КВАЛИФИКАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ

Хасанова Гулноза Илҳом қизи,

Преподаватель Джиззакского государственного педагогического университета

*Аннотация: В данной статье говорится о дидактических особенностях совершенствования педагогического мастерства учителей. Для освещения темы статьи использована зарубежная и отечественная литература. Выводы статьи могут быть использованы при формировании дидактических особенностей совершенствования педагогического мастерства учителей.*

*Ключевые слова: педагогический феномен, технологический аспект, культурно-историческое развитие, педагогическая теория, педагогическое мастерство, стратегическое направление, общество, система образования, педагогические способности, целостная форма.*

Kirish. Ta'lim va tarbiyaning barcha bosqichlarini texnologik jihatdan modernizatsiyalashtirish, hozirgi zamonaliv sharoitdan kelib chiqib ta'lim tizimida muhim strategik yo'nalishlarda olib borilayotgan islohot talablari o'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. O'qituvchining pedagogik qobiliyatini rivojlantirishga uning pedagogik mahoratini oshirishga sabab bo'ladigan asosiy omil sifatida qaraladi. Pedagogik mahorat esa jamiyatning madaniy-tarixiy taraqqiyotida pedagogik nazariya va amaliyot sintezini shuningdek, pedagogik faoliyatining sifat jihatdan muayyanligini jamlaydigan ijtimoiy pedagogik xodisa sanaladi. Oliy ta'lim muassasasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining mahoratini uning pedagogik qobiliyatini muayyan ta'lim tizimining talablari majmui sifatida rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligiga erishish maqsadida o'qituvchining uzluksiz ravishda o'zining malaka oshirib borishida sharoitlar yaratish, shuningdek, mazkur vazifalarni amalga oshirishda rag'batlantiruvchi usullardan foydalanish zarurati maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ta'lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichida o'qituvchilardan doimiy ravishda o'zining ta'limiy va kasbiy extiyojlarini mustaqil malaka oshirish orqali to'ldirib borishlarini talab qiladi. Uzluksiz ta'lim an'anaviy ta'lim tizimi resurslaridan foydalangan holda to'liq amalga oshirilmaydi, balki, uzluksiz

ta'lim va malaka oshirish faoliyatining ortib borayotgan ulushi o'qituvchining mustaqil malaka oshirish faoliyatini muhimligini belgilaydi.

I.Klimenkoning fikricha, mustaqil malaka oshirish intellektni takomillashtirib borish, pedagogik qobiliyatlar va pedagogik mahoratni rivojlantirish yo‘li sanaladi.

I.Ganchenko mustaqil malaka oshirish-ong va dunyoqarashni tarbiyalaydigan, o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali xohish, istak va extiyojlar o‘z-o‘zini takomillashtirishni taqozo etadigan, lekin ularni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydigan aqliy va mafkuraviy o‘z-o‘zini tarbiyalash tizimidir, degan to‘xtamga kelgan.

Sh.Q.Mardonov, K.Zaripov, A.B.Borisova va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, malaka oshirish jarayonini ijodiy yondashuv asosida tashkil etishda interfaol ta'lim va interfaol ta'lim metodlarining o'rni va roli beqiyosdir. Zeroki, ular mohiyatiga ko'ra tinglavchilarni faollilikka undash, malaka oshirish jarayonida qizg'in baxs munozaralarni yuzaga keltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

## Results

Ma'lumki, avvallari o'qituvchi mustaqil uzlusiz malaka oshirish zarurati haqida qayg'urmas edi. Sababi, an'anaviy malaka oshirish tizimi besh yilda bir marta kasbiy faoliyatga zaruriy tayyorgarlik darajasiga yetish imkonini berdi. Shu sababli kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish sohasida mustaqil faoliyat yuritish uchun yetarli malakalar shakllanmagan. Bu esa globallashgan davrda ta'lim sohasi, hususan, o'quv jarayonining asosiy subekti hisoblangan o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talabalarning yangilanishi, o'zgarishi bilan birga zamонавиy o'qituvchiga nisbatan qarashlar tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim o'qituvchilarining malakasini uzlusiz oshirish jarayonini tashkil etishda yuqori samarali zamонавиy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng foydalanish, butun jahon internet axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofaadan o'qitish usullaridan foydalangan xolda ilg'or pedagogik, innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsita texnologiyalarni egallash, ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyati natijadorligini xisobga olgan holda yondashish kerakligini belgilab beradi. Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratlarini integrativ yo'nalishda rivojlantirib borishi, o'qitishning ilg'or usullari va ularga zamонавиy yondashuv asosida ijobiy munosabat bildirishi interfaol ta'lim jarayonlarida o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikka qurilgan natijadorlikning yaqqola namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Oly ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining malaka oshirishlarini tashkil etish jarayonida uning qanday shaklda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega.

### Discussion

Olimlarning fikricha, oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonlaria interfaol o‘qitish metodlarining assisment, simulyatsiya yoki rolli o‘yinlar, vitagen ta’lim texnologiyalari, kreativ texnologiyalar, loyixaviy ta’lim texnologiyasi, ayniqsa portfolio texnologiyasi innovatsion o‘qitish metodlari hamda texnologiyalar bevosita kasbiy kompitentlikni rivojlantirishda samalarli natija ko‘rsatadi.

Har bir ta’lim metodi tinglovchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish bilan birga ta’limning samarali kechishiga xissa qo’shami. O’qituvchi ta’lim metodini tanlaganda mashg’ulot jarayonida o’z yechimini topishi zarur bo’lgan bosh maqsad va aniq pedagogik vaifalarni aniqlab oladi va unga muvofiq jihatdan ko’zlangan asosiy maqsadlarga erishishni kafolatlovchi bir guruh metodlar ko’rib chiqiladi. Masalan, ekstrafaol ( passiv) ta’lim modeli, faol (ichki), introfaol, interfaol ta’lim modellari. Ushbu ta’lim modellarining o’ziga xos xususiyatlari quyidagicha tavfsiflanadi.

Ekstrafaol (ekstra-“tashqaridan”k Kollesnikova faol) ta’lim modeli- ta’lim amaliyotida uzoq yillardan buyon qo’llaniladigan, an’anaviy xarakterdagи та’лим модели sanalib,mashg‘ulotlar jarayonida о’qituvchining yetakchi bo‘lishiga asoslangan ta’lim модели bo‘lib, unda tinglovchilar о’рганиш talab etiladigan nazariy bilimlarni о’qituvchining berayotgan axboroti, uning tomonidan uzatilayotgan ma’lumot hamda adabiyotlar asosida о’zlashtirib boradilar.

Fao (ichki) ta'lif modeli- tinglovchi berilgan vazifalarni mustaqil bajarib boradi, ijodiy izlanadi va mavjud yangi bilimlarni o'zlashtirib boradi.

Introfaol (intro-“tashqarida” faol) ta’lim jarayonida asosan tinglovchilarning faolligi kuzatilib, ta’lim jarayoni tinglovchilar tomonidan tashkil etiladi, ular bir-birlariga o‘z fikr, xulosalarini o‘rgatadilar. Bu jarayonda o‘qituvchi ekspert va kuzatuvchi, tashkilotchi, boshqaruvchi, vazifasini bajaraib, ayrim

xollarda “tinglovchi”ga ham aylanadilar.

Interfaol (ing.“inter”-o‘zaro, “akt”-faol xarakat, faollik, ta’sirchanlik) o‘zaro xarakat, birqalikdagi faoliyat ma’nolarini bildiradi. Interfaol ta’limda o‘qituvchi va tinglovchilar o‘rtasida shuningdek, tinglovchilarning o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, hamjixatlik, hamfikrlik yuzaga keladi. Ushbu modellar bo‘yicha tashkil etiladigan ta’limning mohiyatini umumiy holda 1-jadvaldagi sxemalar asosida tavfsifladik.

### 1 –jadval. Ta’lim berish modellari va ularning asosiy mohiyati.

Ta’lim berish modellari	O‘quv jarayoning mohiyati	Sxema ko‘rinishida tavfsifi
Ekstrafaol(tashqaridan) ta’lim	Meni kimdir (nima bilandir) o‘qitadi	
Faol(ichki) ta’lim	Tinglovchingin faolligi, mustaqilligi ta’minlangan bo‘lsada, biroq o‘qituvchining ishtiroki kuzatilmaydi	
Introfaol(tashqariga) ta’lim	O‘quvchi-tinglovchiga ta’lim beradi(men kimgadir ta’lim bera olaman)	
Interfaol(tashqaridan va tashqarida o‘zaro o‘rin almashgan holda) ta’lim	O‘zaro hamkorlikda ta’lim olish	

Conclusion. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi hamda uzlusiz malaka oshirishi andragogik talablar asosida o‘ziga xoslikni talab etadi. Bu jarayonda o‘qituvchilarning ehtiyojlari, ta’limiy maqsadlarni ko‘zda tutuvchi, tabaqlashtirilgan, individual, malaka oshirishga tayyorgarligi, imkoniyatlari, shart-sharoitlari, erishilgan yutuqlari, ilmiy-pedagogik natijalari, o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirib borishlari, shaxsiy rejasida ko‘zdautilgan asosiy vazifalari, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajalarini inobatga olishlari samarali natija beradi.

Fikrimizcha, bugungi kunda ekstrafaol, faol va introfaol ta’lim jarayonlariga interfaol ta’lim metodlarini tadbiq etilishi ularning samarali kechishini ta’minalash bilan bir qatorda zamonaviy ta’lim uchun o‘ta muhim sanalgan o‘zaro hamkorlik, shuningdek, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatini rivojlantirish uchun ma’lum bir sharoitlarni yuzaga keltiradi. Interfaol shaklda tashkil etiluvchi ta’lim jarayonining muvaffaqiyati juda yuqori bo‘lib, R.A.Islamshin bunday ta’lim berish shaklining asosini 4 ta tamoyil tashkil qilishini aytib o‘tadilar va quyidagicha ta’riflaydilar:

- birinchisi-qulay sharoit(o‘qituvchi va tinglovchi uchun);
- ikkinchisi- hamkorlik(o‘qituvchi bilan tinglovchi, tinglovchi va tinglovchi orasidagi o‘zaaro hamkorlik);

uchinchisi- barcha detallarni o‘ylab chiqish(tashkil etilishi rejalashtirilayotgan ta’lim jarayoni bo‘yicha);

to‘rtinchisi esa - aniq loyihaga(shu ta’lim jarayonining) asoslanishidan iborat.

Shuningdek, ta’lim jarayonida tinglovchilarni o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishlariga imkon yaratish, motivatsiyalarni aniqlash va oshirish, rag‘batlantirish va qayta aloqani yuzaga keltirish tamoyillarini hisobga olgan holda yondashishi bu jarayonning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

#### References

Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016.

Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2017. B-570.

Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. –T.: O‘zbekiston, 2019. 354 –B.

Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – Toshkent, 2015. – 120 bet

Pedagogika: entsiklopediya. 2-jild./ tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent; “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015, 368 b.

Xasanova G.I. O‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatini shakllantirishning nazariy asoslari. Innovation in the modern education system. Washington, USA 25 th February 2023., 416-420 b79.

Xasanova, G. Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. academic research in educational sciences,(ARES) 2021-y.